Buxoro viloyat statistika boshqarmasi

# Demografik holat

**(dastlabki ma'lumotlar)**

**Doimiy aholi soni.** Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 1924,2 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 29,4 ming kishiga yoki 1,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 709,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 1214,6 ming kishini (63,1 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**
**2019-yil yanvar-dekabr**

- Aholi soni **29,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **41,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **16,0 mingta nikoh** va **1,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

**Buxoro viloyati aholisining umumiy o'sishi**
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020-yillar 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

| | 2019-yil | 2020-yil* | O`tgan yilga nisbatan o`sish sur`ati, % |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **1 894,8** | **1 924,2** | **101,6** |
| Buxoro sh. | 277,8 | 280,6 | 101,0 |
| Kogon sh. | 60,7 | 61,2 | 100,8 |
| tumanlar: | | | |
| Olot | 97,4 | 99,0 | 101,6 |
| Buxoro | 163,1 | 166,1 | 101,8 |
| Vobkent | 137,0 | 139,4 | 101,8 |
| G`ijduvon | 299,0 | 303,4 | 101,5 |
| Kogon | 76,2 | 78,0 | 102,4 |
| Qorako`l | 161,3 | 163,7 | 101,5 |
| Qorovolbozor | 18,0 | 18,3 | 101,7 |
| Peshko` | 120,2 | 122,5 | 101,9 |
| Romitan | 138,7 | 141,1 | 101,7 |
| Jondor | 171,2 | 174,0 | 101,6 |
| Shofirkon | 174,2 | 176,9 | 101,5 |

*) dastlabki ma`lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni G`ijduvon tumanida 303,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 % ni) va Buxoro shahrida 280,6 ming kishini (14,6 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,2 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tumanida 18,3 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018-yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,4 % ni, Peshku tumanlarida 1,9 % ni, Buxoro, Vobkent tumanlarida 1,8 % ni, Qorovulbozor, Romitan tumanlarida 1,7 %, Jondor, Olot tumanlarida 1,6 % ni va G`ijduvon, Qorako`l va Shofirkon tumanida 1,5 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Kogon shahrida 0,8 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida doimiy aholi soning taqsimlanishi
(2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




## Hududlar kesimida doimiy aholi soning shahar va qishloqlarga bo`linishi
(2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



## Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi
(2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

| | erkak | ayol |
|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **962,7** | **961,5** |
| Buxoro sh. | 139,3 | 141,2 |
| Kogon sh. | 29,8 | 31,4 |
| *tumanlar:* | | |
| Olot | 49,6 | 49,4 |
| Buxoro | 83,3 | 82,8 |
| Vobkent | 70,1 | 69,4 |
| G'ijduvon | 154,7 | 148,7 |
| Kogon | 38,6 | 39,4 |
| Qorako'l | 80,7 | 83,1 |
| Qorovulbozor | 9,1 | 9,2 |
| Peshku | 61,3 | 61,2 |
| Romitan | 71,6 | 69,6 |
| Jondor | 85,8 | 88,2 |
| Shofirkon | 89,0 | 87,9 |

## Hududlar kesimida aholi zichligi
(2020-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv. km ga to`g`ri keladigan aholi)



**Tug'ilish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 41,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,6 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko`paygan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 21,5 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan Buxoro shahrida (17,1 promilledan 19,3 promillega), Qorovulbozor tumanida (20,5 promilledan 21,9 promillega), Kogon shahrida (18,3 promilledan 19,2 promillega) va Vobkent tumanida (20,1 promilledan 22,4 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Jondor tumanida (23,5 promilledan 22,0 promillega) va G`ijduvon tumanida (22,8 promilledan 22,4 promillega) kuzatildi.

.

**Ma'lumot uchun**

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Qiz bolalar: 20,5 ming nafar**

**O'g'il bolalar: 20,8 ming nafar**

**Hududlar kesimida tug`ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)**



## Buxoro viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)

| | 2018-yil | 2019-yil | O`sish sur`ati % da |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **40338** | **41 296** | **112,6** |
| Buxoro sh. | 4744 | 5 375 | 124,8 |
| Kogon sh. | 1104 | 1 167 | 120,2 |
| *tumanlar:* | | | |
| Olot | 2128 | 2 136 | 110,7 |
| Buxoro | 3205 | 3 289 | 113,5 |
| Vobkent | 2974 | 3 094 | 113,4 |
| G'ijduvon | 6761 | 6 749 | 109,2 |
| Kogon | 1797 | 1 832 | 114,2 |
| Qorako'l | 3700 | 3 721 | 110,5 |
| Qorovulbozor | 368 | 397 | 119,9 |
| Peshku | 2738 | 2 760 | 109,7 |
| Romitan | 3064 | 3 156 | 112,6 |
| Jondor | 3988 | 3 791 | 104,8 |
| Shofirkon | 3767 | 3 829 | 111,5 |

**Vafot etganlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 8,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko`paygan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Kogon shahrida (5,6 promilledan 4,9 promillega), G`jduvon tumanida (4,5 promilledan 4,2 promillega), Vobkent tumanida (4,3 promilledan 4,1 promillega) va Buxoro shahrida (5,0 promilledan 4,9 promillega) tumanlarida kuzatilgan bo`lib, aksincha Shofirkon (4,1 promilledan 4,6 promillega), Olot (4,0 promilledan 4,5 promillega) va Qorakul (4,0 promilledan 4,7 promillega) tumanlarida o`sish holati

## Vafot etganlar



**Erkaklar: 4,5 ming kishi**

**Ayollar: 3,8 ming kishi**

### Hududlar kesimida o`lganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)



## Buxoro viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi
## (yanvar-dekabr)

| | 2018-yil | 2019-yil | O`sish sur`ati % da |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **7978** | **8 305** | **104,1** |
| Buxoro sh. | 1387 | 1 364 | 98,3 |
| Kogon sh. | 336 | 299 | 89,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| Olot | 389 | 445 | 114,4 |
| Buxoro | 608 | 642 | 105,6 |
| Vobkent | 581 | 572 | 98,5 |
| G'ijduvon | 1330 | 1 271 | 95,6 |
| Kogon | 329 | 364 | 110,6 |
| Qorako'l | 639 | 759 | 118,8 |
| Qorovulbozor | 55 | 56 | 101,8 |
| Peshku | 438 | 488 | 111,4 |
| Romitan | 514 | 512 | 99,6 |
| Jondor | 660 | 720 | 109,1 |
| Shofirkon | 712 | 813 | 114,2 |

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,5 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,5 % i o'simtalardan, 6,0 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,5 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,9 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 312 nafarni tashkil etib, ularning 57,1 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 5,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 17,3 % i tug'ma anomaliyalardan, 2,9 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,7 % i yuqumli parazitar kasalliklardan va 10,9 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**
(jami vafot etganlarga nisbatan % da)




**2019-yil yanvar-dekabr**

**Tabiiy o'sish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 33,0 ming kishini tashkil etib, 2018-yil mos davriga nisbatan 0,6 ming kishiga (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 32,4 ming kishi bo'lgan) ko`paygan.



Tabiiy o'sish: 33,0 ming kishi

**Nikoh.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o`sish sur'atlari Qorovulbozor ( 112,9 %), Buxoro (109,6 %) va Peshko` tumanlari (102,8 %) ga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (106,7 %), Buxoro (140,3 %) va Buxoro (1058,6 %), tumanlariga va Buxoro shahriga (105,5 %) to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)**



## Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)




## Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)

| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018-yil | 2019-yil | O`sish sur`ati % da | 2018-yil | 2019-yil | O`sish sur`ati % da |
| **Buxoro viloyati** | **16065** | **15 975** | **99,4** | **1755** | **1 724** | **98,2** |
| Buxoro sh. | 2344 | 2 348 | 100,2 | 524,0 | 553 | 105,5 |
| Kogon sh. | 479 | 470 | 98,1 | 84,0 | 77 | 91,7 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Olot | 837 | 848 | 101,3 | 69,0 | 62 | 89,9 |
| Buxoro | 1153 | 1 264 | 109,6 | 126,0 | 133 | 105,6 |
| Vobkent | 1204 | 1 154 | 95,8 | 88,0 | 85 | 96,6 |
| G'ijduvon | 2562 | 2 574 | 100,5 | 243,0 | 227 | 93,4 |
| Kogon | 665 | 594 | 89,3 | 94,0 | 86 | 91,5 |
| Qorako'l | 1541 | 1 474 | 95,7 | 120,0 | 108 | 90,0 |
| Qorovulbozor | 132 | 149 | 112,9 | 15,0 | 16 | 106,7 |
| Peshku | 1056 | 1 086 | 102,8 | 74,0 | 73 | 98,6 |
| Romitan | 1169 | 1 113 | 95,2 | 95,0 | 91 | 95,8 |
| Jondor | 1425 | 1 381 | 96,9 | 111,0 | 95 | 85,6 |
| Shofirkon | 1498 | 1 520 | 101,5 | 112,0 | 118 | 105,4 |

## Migratsiya.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 9,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,6 ming kishi bo'lib, 2018-yilning mos davrida minus

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

| | 2018-yil yanvar-dekabr | 2019-yil yanvar-dekabr |
|---|---|---|
| **Ko'chib kelganlar** | 6,1 | 5,6 |
| **Ko'chib ketganlar** | 8,8 | 9,2 |
| **Migratsiya saldosi** | -3,6 | -2,7 |

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 1,3 ming kishi), G`ijduvon tumanida (minus 1,1 ming kishi) qayd etildi.




**Viloyat statistika boshqarmasi**
**Demografiya va mehnat statistikasi bo`limi**
Nashr uchun mas'ul: **L. Jiyanov**
*(71) 230-83-16 (65) 223-83-37*